

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Зумрад Бойхўразовна Раҳмонкулова XXI АСР ТУРКИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	5
2. Gulnara Rashidovna Joldasbaeva QORAQALPOQLARNING AN'ANAVIY SUT MAHSULOTLARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI.....	11
3. Nigora Azadovna Egamberdiyeva XORAZMNING QADIMIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI (KULOLCHILIK TARIXI MISOLIDA).....	17
4. С.И.Габриэльян СРЕДНЕВОСТОЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РУССКО-ГЕРМАНСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА НАКАНУНЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	23
5. Risolat Davron qizi Murodova ILMIY MEROSNI SAQLASHDA ILMIY MUZEYLARNING O'RNI: TAJRIBA VA TAHLIL...	35
6. Shukrullo Nasriddinov, Dilshod To'xtasinov O'RTA OSIYO DINIY-MONUMENTAL ME'MORCHILIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	42
7. Sherbek Axmedovich Omanov, Shukrullo Nazrullayevich Nasriddinov AXSIKENT YODGORLIGI ASOSIDA O'RTA ASRLAR UY - JOY XO'JALIGI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI.....	48
8. Матлуба Бойхурозовна Раҳманкулова XVI–XVII АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУҚОВАЛАРИДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ҲИРОТ МУҚОВАСОЗЛИК УСЛУБИ АНЪАНАЛАРИ.....	54
9. Abdulla Nuritdinovich Rasulov, Nurillo Abdulboqiyevich Rejabboyev SAMARQAND VILOYATI OCHARCHILIK OQIBATLARINI TUGATISH KOMISSIYASI FAOLIYATI.....	63
10. Рустам Султонмуродович Солиев XX ASRDA TURKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATLAR.....	71
11. Xayrullo Lutfillojon o'g'li Xolmirzayev QO'QON XONLIGIDA 1853-YIDAN KEYINGI SIYOSIY HARAKATLAR VA MALLAXONNING HOKIMIYATGA KELISHI.....	76
12. Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	82



Xayrullo Lutfillojon o'g'li Xolmirzayev,
 Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
 E:mail: xayrullohxolmirzayev93@gmail.com
 ORCID ID 0009-0005-6672-425X

QO'QON XONLIGIDA 1853-YIDAN KEYINGI SIYOSIY HARAKATLAR VA MALLAXONNING HOKIMIYATGA KELISHI

For citation: Khairullo L. Kholmirzayev. POLITICAL MOVEMENTS IN THE KOKAND KHANATE AFTER 1853 AND THE RISE TO POWER OF MALLAKHON. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 7.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807466>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qo'qon xonligida 1853-yildan keying siyosiy voqealar, qipchoqlarning siyosiy maydondagi harakati, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga kirib kelishi hamda Mallaxonning xonlik taxtiga chiqishi hamda uning o'ldiril'shi manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Xudoyorxon hukmronligining inqiroziy jihatlar, saroydagi ziddiyatlar, qipchoq va boshqa zodagon guruhlar o'rtasidagi mojaro hamda bu omillarning xonlikdagi siyosiy beqarorlikni kuchaytirishi yoritiladi. Shuningdek, 1853-yildan boshlab kuchaygan ichki fitnalar, hududiy boshqaruvdagi zaiflik, soliqlar siyosatidagi adolatsizlik va xalq noroziligi Mallaxon shaxsining siyosiy maydonga chiqishi uchun qanday sharoit yaratgani ko'rsatiladi. Mavzuda Mallaxonning nasab-mansabi, uning Xudoyorxon bilan qarindoshlik aloqalari, taxt uchun kurash jarayonida qo'llagan harbiy-siyosiy strategiyasi hamda qo'shin ichida va qipchoq zodagonlari orasida tayanch bazasini mustahkamlash usullari alohida o'rganiladi. Tadqiqotda 1858-yilda Xudoyorxonga qarshi harbiy yurish, Qo'qon taxtining egallanishi, Mallaxonning xon deb e'lon qilinishi va uning qisqa, ammo keskin siyosiy islohotlarga urinishlari, jumladan qipchoqlar mavqeini tiklash, harbiy intizomni kuchaytirish, soliq siyosatini qayta ko'rib chiqish kabi choralari tahliliy tarzda yoritiladi. Shu bilan birga, Mallaxon hukmronligi davrida Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar, chegaraviy hududlardagi harbiy to'qnashuvlar, xonlikning tashqi siyosatida yuzaga kelgan tanglik va bu omillarning ichki siyosiy muxolifat kuchayishiga ta'siri ko'rsatib beriladi. Mallaxonning siyosiy raqiblari bilan kurashda qo'llagan jazolash choralari kuchayishi, og'ir majburiyat va soliqlarning joriy etilishi hamda natijada saroy va lashkar elitalari ichida unga qarshi fitnalar yetilishi, xonning ag'darilishi va o'ldirilishi jarayonlari xronologik asosda yoritiladi. Ish yakunida Mallaxon davrining Qo'qon xonligi siyosiy tarixidagi o'rni, uning hokimiyatga kelishi va qulashining xonlik inqirozi hamda mustaqilligini yo'qotishi jarayonlaridagi o'rni ilmiy xulosalar asosida baholanadi.

Kalit so'z va iboralar: Mirzo Axmad qo'shbegi, Xudoyorxon, Mallaxon, Oqmasjid, qo'zg'olon, soliqlar, qipchiqlar, siyosiy parokandalik.

Холмирзаев Хайрулло Лутфиллоджон оглу,
 Докторант Наманганского государственного университета
 E:mail: xayrullohxolmirzayev93@gmail.com

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ДВИЖЕНИЯ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ ПОСЛЕ 1853 ГОДА И ПРИХОД К ВЛАСТИ МАЛЛАХОНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе источников анализируются политические события в Кокандском ханстве после 1853 года, движение кипчаков на политической арене, вступление Российской империи в Центральную Азию, восхождение Маллахона на ханский престол и его убийство.

В книге также рассматриваются критические аспекты правления Худойор-хана, конфликты во дворце, конфликты между кипчаками и другими знатными группами, а также то, как эти факторы усилили политическую нестабильность в ханстве. Показано, как внутренние интриги, усилившиеся с 1853 года, слабость территориального управления, несправедливость в налоговой политике и народное недовольство создали условия для выхода Малла-хана на политическую арену. В частности, рассматривается родословная Малла-хана, его родственные связи с Худойор-ханом, военно-политическая стратегия, которую он использовал в борьбе за трон, и методы укрепления его позиций в армии и среди кипчакской знати. Анализируется военная кампания против Худойор-хана в 1858 году, захват кокандского трона, провозглашение Малла-хана ханом и его краткие, но радикальные попытки политических реформ, включая восстановление позиций кипчаков, усиление военной дисциплины и пересмотр налоговой политики. Одновременно с этим, в работе показаны отношения с Российской империей во время правления Малла-хана, военные конфликты в приграничных районах, напряженность, возникшая во внешней политике хана, и влияние этих факторов на усиление внутренней политической оппозиции. В хронологическом порядке освещаются интенсификация Малла-ханом карательных мер в борьбе с политическими противниками, введение высоких пошлин и налогов, а как следствие, заговоры против него внутри дворцовой и армейской элиты, свержение и убийство хана. В конце работы на основе научных выводов оценивается роль эпохи Малла-хана в политической истории Кокандского ханства, роль его прихода к власти и падения в процессах кризиса ханства и утраты независимости.

Ключевые слова и фразы: Мирзо Ахмад Кошбеги, Худойорхан, Маллахон, Акмасджид, восстание, налоги, кипчаки, политический хаос.

Khairullo L. Kholmirezayev,

PhD student at Namangan State University

E:mail: xayrullohxolmirzayev93@gmail.com

ORCID ID 0009-0005-6672-425X

POLITICAL MOVEMENTS IN THE KOKAND KHANATE AFTER 1853 AND THE RISE TO POWER OF MALLAKHON

ABSTRACT

This article analyzes the political events in the Kokand Khanate after 1853, the movement of the Kipchaks in the political arena, the entry of the Russian Empire into Central Asia and the rise of Mallakhon to the khanate throne and his assassination based on sources.

It also covers the critical aspects of Khudoyor Khan's reign, conflicts at the palace, conflicts between the Kipchaks and other noble groups, and how these factors increased political instability in the khanate. It also shows how the internal intrigues that intensified since 1853, the weakness of territorial administration, injustice in tax policy, and popular discontent created the conditions for Malla Khan's emergence into the political arena. The topic specifically examines Malla Khan's lineage, his kinship ties with Khudoyor Khan, the military-political strategy he used in the struggle for the throne, and the methods of strengthening his base within the army and among the Kipchak

nobility. The study analyzes the military campaign against Khudoyor Khan in 1858, the seizure of the Kokand throne, Malla Khan's proclamation as khan, and his brief but drastic attempts at political reforms, including the restoration of the position of the Kipchaks, strengthening military discipline, and revising tax policy. At the same time, the relations with the Russian Empire during Malla Khan's reign, military conflicts in the border regions, the tension that arose in the khan's foreign policy, and the impact of these factors on the strengthening of internal political opposition are shown. Malla Khan's intensification of punitive measures in the fight against political opponents, the introduction of heavy duties and taxes, and as a result, conspiracies against him within the palace and army elites, the overthrow and assassination of the khan are covered on a chronological basis. At the end of the work, the role of the Malla Khan era in the political history of the Kokand Khanate, the role of his rise to power and fall in the processes of the khanate's crisis and loss of independence will be assessed based on scientific conclusions.

Index Terms and phrases: Mirzo Akhmad Qoshbegi, Khudoyorkhan, Mallakhon, Aqmasjid, uprising, taxes, Kipchaks, political chaos.

Kirish. 1853-yilda qipchoqlar bilan bo'lib o'tgan "Bilqillama" jangidan so'ng Xudoyorxonning mustaqil hukmronligi boshlanadi. Ushbu g'alabadan so'ng qipchoqlarning siyosiy ta'siri pasayadi va ular o'rniga mahalliy zodagonlar chiqadi. Qipchoq zodagonlarining yer-mulkleri musodara etilib xalqqa sotib yuboriladi. Ushbu voqealardan so'ng Xudoyorxon unga yordam bergan ko'plab zodagonlarni yuqori davlat lavozimlariga tayinlaydi.

Shunday vaziyatda xonlikning shimoliy-g'ربيy chegaralari joylashgan Sirdaryo pasttekisliklarida ham og'ir vaziyat yuzaga keladi. 1853-yilda rus qo'shinlari xonlikga tegishli bo'lgan Oqmasjid qal'asini bosib oladilar.

Asosiy qism. Qipchoqlarning qirg'in qilinishi bilan ahvol yaxshilanmadi. 1854-yili qipchoqlar qo'zg'olonining yangi to'lqini boshlandi. Saroydagi ayirmachilik harakatlari davom etdi. Qipchoqlar qirg'inidan so'ng siyosiy hayot va ma'muriy boshqaruv tizimida boshqa guruhlar mavqei kuchaydi[1]. Bu esa xonlikdagi siyosiy va ijtimoiy tuzumga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi albatta. XIX asrning 50-60 yillariga kelib Qo'qon xonligida ichki siyosiy kurashlar va hokimiyat uchun intilayotgan siyosiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar avj oldi. Ayniqsa Xudoyorxon hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat xonlikning turli hududlarida yuzaga kelgan qo'zg'olonlarga sabab bo'lishi bilan birga xon hokimiyatidan norozi guruhlarining ham faollashuviga turtki bo'ldi. Asosiy e'tiborini qo'zg'olonlarni bartaraf etishga qaratgan Xudoyorxon ichki kurashlarda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Xonlikning ko'chmanchi qozoqlar yashaydigan hududlarida, shuningdek, Turkiston, Chimkent va boshqa o'trok aholi yashaydigan hududlarida soliqlarning miqdori oshirib yuborilishiga qarshi norozilik xarakatlaridan biri 1858-yil Toshkent bekligiga qarashli hududlarda bo'lib o'tgan edi. Toshkent hokimi Mirzo Axmad qo'shbegi Chimkent, Turkiston va Avliyootada yashovchi aholidan odatdan tashqari barcha chorva mollariga soliq to'lanishi hamda turmushga chiqayotgan xar bir qiz uchun bir tildan soliq joriy qilinganini ma'lum qilganda, norozi bo'lgan xalq qo'zg'olon ko'taradi[2]. Bundan tashqari manbalarda yozilishicha, Toshkent xokimi bo'lib turgan Mirzo Axmad qo'shbegi amalda mustaqil boshqaruvni amalga oshirib, zulm va zo'ravonlikni xaddan oshiradi. Ayniqsa, soliq siyosatida shafqatsiz yo'l tutadi. Xattoki, qo'sh puli, ko'k puli kabi mayda soliklarni yig'ish jarayonida soliq to'lay olmaganlardan yosh o'g'li yoki qizini soliq sifatida to'lashga ham majbur qiladi[3]. Bu esa yuqorida ta'kidlanganidek, faqat Mirzo Axmad qo'shbegidagina emas, balki davlat raxbari sifatida Xudoyorxondan ham umumiy norozilikning oshishiga olib kelgan edi. Ushbu qo'zg'olon haqida I. Kuzikulov shunday yozadi: Qozoqlarning dulat, beshtamg'al va changlin urug'lari 1858-yil qo'zg'olon ko'targan. Toshkent parvonachisi chorvadorlardan soliq yig'ish maqsadida o'z odamlarini jo'natgan. Soliq faqatgina chorva hayvonlaridagina emas, balki har bir qiz bola uchun 20 rubldan to'lanishi kerak edi. Soliq yig'uvchilar boshlig'i Mirzaboy qiz bolalarni ro'yxatdan o'tkazish paytida erkaklar telpagi kiyib yurgan Qanayboyning qizini payqab qolgan. Qanayboydan jarima to'lashni talab qilganida, Mirzaboy o'ldirilgan. Boshqa chorvadorlar soliqchilarga hujum qilib, ularning aksariyatini o'ldirganlar. Shu tariqa qo'zg'olon boshlanib ketgan[4]. Mazkur

qo'zg'olonning sabablarini tarixchi Muxammad Yunus Toib xalqning amaldorlar siyosatidan, xususan, Normuhammad parvonachi hamda Mirzo Ahmad qo'shbegi zulmidan sabr kosasi to'lganligida va Xudoyorxonning beparvo hamda fuqarolar holidan g'ofil ekanligida, deb ko'rsatadi[5]. Tarixchi va davlat mansabdori bo'lgan Abu Ubaydullo Toshkandiyning yozishicha, Mirzo Ahmad qo'shbegi tomonidan ko'plab soliqlarning solinishi va zulmning xaddan ortishi natijasida xalq ommasining noroziligi kun sayin kuchayib boradi. Xatto soliqchilar zakot va xiroj yig'ish uchun qo'shin bilan chiqadigan bo'ldilar. 1857-yil Avliyoota atrofida yashovchi aholidan soliq yig'ish ishlarida Abu Ubaydulloning o'zi ham ishtirok etgan. Bu qo'zg'olonga Xudoybergan ibni Boyit Baxodur boshchilik qilgan edi[6].

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki 1857-yilga kelib bu hududlarning aksariyati Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan edi. "Dashti Qipchoqning, - deb yozadi Muxammad Solix, - turli chekkalarida yashovchi qabila va urug'lar o'zaro birlashib, Qo'qon xonligining va ayni vaqtda Toshkent bekligining tasarrufidan chiqqanliklarini e'lon qildilar. Ular soliqchilarga bir dirxam [7] u yoqda tursin, bir fulus [8] ham to'lamadilar. Aksincha, Dashti Qipchoqning Turkistongacha bo'lgan hududlari qo'zg'olonlar va tartibsizliklar iskanjasida qoldi"[9]. Yuzaga kelgan vaziyatning sabablari haqida boshqa manbalarda mutlaqo boshqacha talqindagi ma'lumotlar uchraydi. Masalan, L.Sobolevning ko'rsatishicha, Oqmachitning qo'ldan ketishi oqibatida Xudoyorxon xonlikning shimoliy hududlarida alohida boshqaruvni joriy etadi va hokimlik vazifasiga o'zining eng yaqin amaldorlaridan biri Mirzo Axmad qo'shbegini qo'yadi. Unga vakolat topshirar ekan, Xudoyorxon «ruslar ta'siri va hukmronligi ostida bo'lgan barcha ko'chmanchilarni talon-taroj etish va qatl etish»ni alohida tayinlaydi. Buning oqibatida esa «xonlikning barcha shimoliy hududlari qo'zg'olonlar girdobida qoldi»[10]. Mirzo Axmad qo'shbegi qo'zg'olonni bostirish uchun qo'shin bilan Olmaotada to'xtadi va bu vaqtda Pishpakda turgan yirik qo'zg'olonchilardan biri So'fitoy biyga qarshi besh ponsot boshchiligida qoshin jo'natdi. Biroq yuborilgan qo'shin mag'lubiyatga uchradi. Qozonilgan g'alabadan ruhlangan qo'zg'olonchilar bu vaqtda Avliyo otaga qaytib kelgan Mirzo Axmadni shahar ichiga qamab, qamal qiladilar. Qamalda argun, duglat, barlos, qo'ngirot, beshtamgali, sanchkli, sirg'ali, qoraqalpoq va boshqa urug'lar ishtirok etadi. Toshkent hukumatining vaziri Mirzabiy boshchiligida Chimkent atroflariga zakot yig'ish uchun yuborilgan qo'shin sirg'ali, qo'ng'irot va boshqa urug'lar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. Mirzabiyning o'zi va yaqin amaldorlari esa to'qnashuvlarda halok bo'ladi[11].

Xonlikning shimoliy hududlarida shunday ahvol yuzaga kelib qoldiki, hech bir lashkarboshi bu yerga kelishni istamay qoldi. Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish va qo'zg'olonchilar tomonidan Avliyootaga qamab olingan Mirzo Axmad qo'shbegini qutqarmoq uchun darhol Shodmonxoji mingboshi va o'zining akasi Mallabek boshchiligida qo'shin jo'natadi. Qo'zg'olon Mallabekning tadbirkorlik bilan yo'l tutishi, ya'ni qo'zg'olonchilar qo'ygan shartlarni bajarishni zimmasiga olganligi natijasida bostiriladi va yurtda tinchlik o'rnatiladi. Shodmonxoji mingboshi esa Toshkentga hokim etib tayinlanadi[12]. Yuqoridagi voqealardan so'ng Xudoyorxon va uning hukumatiga bo'lgan ishonchsizlik oshib ketadi. Bu vaqtda Buxoro amiri Nasrullo O'ratepani qamal qilib, qo'qonliklarni mag'lubiyatga uchratadi va Xo'jandga yurish qiladi. Biroq, amirning yurishi shahar hokimi Yoqubbek Badavlat tomonidan to'xtatiladi va amir chekinishga majbur bo'ladi. Bu voqealardan so'ng Mallabek xonning akasi sifatida eng nufuzli amaldorlardan Mirzo Axmad qo'shbegi va Dustmuhammad dasturxonchilarni Xudoyorxonning yurt va fuqaro holidan bexabar va g'ofil bo'lishida asosiy aybdorlar hisoblab, ularni qatl qilmoqchi bo'ladi. Biroq boshqa amaldorlarning aralashuvlaridan so'ng o'z fikridan qaytib, odamlari bilan Qo'qondan chiqib Andijonga ketadi[13]. Mallabekning bu ishi Xudoyorxonda norozilik uyg'otib, bosh vazirning aralashuvi bilan esa qatlg'a hukm qilindi[14]. Aynan shu sabab yirik davlat amaldorlari va bir qator qipchoq jamoalari va urug'lari boshliqlarining Mallabekka xayrixoxligini yanada kuchaytirib yubordi. Andijonda Mallabek boshchiligidagi guruh Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, taxtni egallash rejasini amalga oshirishga kirishadi. Bu yerdan Mallabek o'zining eng ishonchli kishilaridan biriga aylangan Mullo Aliqulining maslahati bilan O'shga keladi. U O'shda Olimbek dodxox, Sayidbek dodxox va boshqa nufuzli kishilar bilan ittifoq tuzib, hokimiyatni o'z qo'liga olish va mamlakatda tartib o'rnatish fikrida ekanligini aytadi. Bu yerda bir qancha maslakdoshlar orttirib, harbiy kuchga

ega bo'lgan Mallabek yana qaytib Andijonga, Toshloq mavzesiga keladi va bu yerda Aliqulining hovlisida xonlik rutbasiga ko'tariladi. Ular shu yerda turib hokimiyatni egallash uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. Mallaxonning bu harakatini davlatga qarshi siyosiy jinoyat yoki siyosiy fitna sifatida, islom diniga va qonunlariga mos kelmaydigan hamda shariat yo'l qo'ymaydigan bir harakat deb ham baholash mumkin, biroq, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Mallaxon yurtida tartib o'rnatish, saroydagi boshboshdoqliklarni tugatish, o'zaro fitnalarga barham berib, kuchayib borayotgan Rossiya imperiyasining bosqinchilik tajovuzini oldini olish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib borgan. Uning bu maqsadini ko'pgina amaldorlar va davlat arboblari, din peshvolari ham qo'llab-quvvatlagan edilar. 1858-yilda Mallabek Alikuli yordami bilan ayni damda Buxoro amiriga qarshi jangda bo'lgan Sufibek va Shoxmurodlarning yo'qligidan foydalanib, ularning hukmi ostida bo'lgan Andijon va Marg'ilonni qo'lga kiritadi[15]. Keyingi yurishlar Qo'qonni egallashga qaratiladi va aka - uka o'rtasidagi jang Samonchi mavzesida bo'lib o'tadi [16]. Mallaxon bu jangda g'alabaga erishadi va bir necha kunlik qamaldan so'ng Qo'qonni egallaydi. Mallaxonning bu g'alabasi va taxtni egallashi Toshkent hokimi Sulton Murodbek, O'tamboi qo'shbegi, Andijon hokimi Sufibek hamda Quramaliklar tomonidan muborakbod etiladi va uning qonuniy taxt egasi bo'lganligi e'tirof etilib, Mallaxonga o'z tobeliklarini bildiradilar[17]. Xudoyorxon esa o'zini qo'llab-quvvatlovchi kuch qolmaganligi tufayli Buxoro amiri huzuridan panoh topadi. Yuqorida murojaat qilingan manbalarda keltirilgan ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinki, xonlikning bu davrdagi siyosiy ahvoli va ayniqsa xonlik taxti uchun bolgan kurashlar masalasida turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

Xulosa:

Garchi bu manabalarda yuz bergan tarixiy jarayonlarning o'zini tavsiflashga va tasvirlashga asosiy e'tibor qaratilib, ayrimlarida voqealar rivojining asosida iqtisodiy omillar ko'rsatilgan bo'lsa, ayrimlarida siyosiy omillar birinchi o'ringa qo'yilgan. Tarixiy manbalar va o'sha davr tarixiy jarayonlarini mantiqiy izchillikda tahlil qilish natijasida ko'rish mumkinki, Mallaxonning taxt uchun kurash olib borishi va taxtga kelishi ilgari hokimiyat egalari bo'lib, davlat siyosiy boshqaruviga nihoyatda katta ta'sir o'tkazib kelgan qipchoq zodagonlarining maqsadlari asosida amalga oshirildi, deb qarash noto'g'ri bo'ladi. Garchi bunda katta xarbiy kuch va mavqe egalari bo'lgan qipchoq zodagonlari Mallaxonga yaqindan yordam bergan bo'lsalar-da (biroq 1862 yil 23 fevral kechasi Mallaxon aynan qirgiz-qipchoq; zodagonlari tomonidan qatl etilganligi fikrimizni quvvatlantiradi), bu kurash saroydagi xokimiyat uchun intilayotgan kuchlarning o'zaro to'qnashuvi, fitnalar, taxtga bo'ysunmaslik va Xudoyorxon tomonidan fuqarolarning barcha qatlamlari manfaatlarini ko'zlab siyosat yuritilmaganligi, qolaversa bir qancha vaqtlardan buyon taxtni qo'lga kiritishni ko'zlab yurgan Mallaxonning shaxsiy manfaatlari asosida yuzaga kelgan edi, deb ham qarash lozim.

Iqtiboslar /Snoski/References:

- 1.Kuzikulov I. U. Qo'qon xonligi tarixi (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Namangan, 2014. – B. 20.
- 2.Ибрат. Фаргона тарихи. Т.:Камалак, 1991 йил. Б-283. Мухаммад Yunus Toib.Tarixi Alikuli Amirlashkar. -B.14-18.
- 3.Nabiev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva. -S.51.
- 4.Kuzikulov I. U. Qo'qon xonligi tarixi (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Namangan, 2014. – B. 68.
- 5.Muxammad Yunus Toib.Tarixi Alikuli Amirlashkar. -B.14-18.
- 6.Abu Ubaydullo Toshkandiy. Xulosatul -axzol. -B.261a-261b.
- 7.Kumush tanga
- 8.Mis chaqa
- 9.Muxammad Solix Toshkandiy. Tarixi jadidi Toshkand. B.202.
- 10.Sobolev L. Kratkiy obzor polojeniya del v Kokande. Turkestanskiy sbornik, T. 152.
- 11.Nabiev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva. -S.52; Tarixi jaxonnamoyi. B.2426.

- 12.P.P.Ivanov. Ocherki po istorii Sredney Azii.. (XU1-seredina XIXv.). -M., 1958. -S.212; "Tarixi jaxonnamoyi".-b-242-243a; "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavokin". -B.49.
- 13.Tarixi Alikuli Amirlashkar. -B. 17; Muxammad Yunus Toib. Tarixi Aliqli Amirlashkar. Sharq yulduzi, 1996. №1-2. -B.214-217.
- 14.Nabiev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva. -S.55.
- 15.Ansob us - salotin va tavorix ul-xavokin. -B.61-62; Nabiev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva.-S.55.
- 16.Xudoyorxon va Mallaxon o'rtasidagi kurash joyini Muxammad Yunus Toib (Tarixi Alikuli Amirlashkar. -B.18), Mirzo Olim Mushrif (Ansob us - salotin va tavorix ul - xavoqin. - B.60),L.Sobolev (Kratkiy obzor polojeniya del v Kokande. Turkestanskiy sbornik. T.152)lar Samonchi mavzesi deb ko'rsatsalar, R.Nabiev Rishton (Iz storii Kokandskogo xanstva. -S.55)da, V.Nalivkin esa (Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva. Kazan, -1886. -S 188) Kashg'ar kishlog'ida deb ko'rsatadilar. To'qnashuv aslida Samonchi mavzesida bo'lib o'tgan.
- 17.Мирзоолим Мушриф, Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавокин. Т.: Ф. Рулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1995. -B.61-62; Iz istorii Kokanskogo xanstva. -S.56; Turkistonda Rossiya tajovuzi va xukmronligiga karshi kurash. -B.111; Tarixi Alikuli Amirlashkar. - B. 19-21.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000